



BUXGALTERIYA TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISH: SUN'IY INTELLEKT VA DASTURIY TA'MINOTNING AHAMIYATI

Shodiyev Kamoliddin

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

E-mail: shodiyevkamoliddin91@gmail.com

Jumanazarov Ro'zimurod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi 2- bosqich talabasi.

E-mail: rozimurodjumanazarovv@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15089505>

Annotatsiya. Mazkur maqolada buxgalteriya tizimlarini avtomatlashtirish jarayonida sun'iy intellekt va dasturiy ta'minotning ahamiyati tahlil qilinadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar moliyaviy jarayonlarni tezkor, aniq va samarali boshqarishni ta'minlab, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi. Maqolada zamonaviy buxgalteriya dasturlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, ular orqali vaqt va resurslarni tejash usullari yoritiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning kelajakda buxgalteriya sohasidagi rivojlanishiga ta'siri ham muhokama qilinadi. Tadqiqotda real hayotiy misollar va mavjud dasturiy yechimlar tahlil qilinib, ularning afzallik va cheklovlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, chatbotlar, Machine Learning, buxgalteriya, bulutli texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari.

Kirish. Bugungi kunda buxgalteriya va sun'iy intellekt (AI) o'rtasidagi bog'liqlik katta ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va moliyaviy prognozlar qilishda qo'llanilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt yordamida buxgalteriya hisobotlari avtomatik tarzda tayyorlanadi, auditorlik jarayonlari samarali o'tkaziladi va risklar aniq bashorat qilinadi. Shuningdek, AI buxgalteriya dasturlarini optimallashtirish va foydalanuvchilar uchun qulay interfeyslar yaratishda yordam beradi. Natijada, sun'iy intellekt buxgalteriya sohasida samaradorlikni oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Buxgalteriya tizimini avtomatlashtirish – buxgalteriya jarayonlarini maxsus dasturiy ta'minot va texnologiyalar yordamida avtomatik boshqarishga yo'naltirilgan jarayon. Bu yondashuv moliyaviy operatsiyalarni tezkor, aniq va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

1. Hisobotlarni tayyorlash, hisob-kitoblar va ma'lumotlarni qayta ishlash tezlashadi. Oddiy qo'lda bajariladigan ishlar avtomatlashtiriladi.
2. Inson omili sabab yuzaga keladigan xatoliklar sun'iy intellekt yoki dasturiy tizimlar orqali sezilarli darajada kamayadi.
3. Zamonaviy tizimlar moliyaviy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va kompaniya faoliyati bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.
4. Kadrlar va boshqa resurslarga bo'lgan talab kamayadi, bu esa korxonalarga xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.
5. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali korxonalar moliyaviy holatni real vaqt rejimida kuzatishlari va nazorat qilishlari mumkin



6. Avtomatlashtirish orqali moliyaviy jarayonlar me'yoriy hujjatlarga muvofiq tarzda olib boriladi, bu esa qonunbuzarliklarning oldini oladi
7. Normativ hujjatlardagi o'zgarishlarga, hisobot shakllariga, hisob-kitob qoidalariga va hokazolarga qarab, dasturiy mahsulotlarni o'z vaqtida yangilashni o'z ichiga olgan kompleks xizmat.
8. Axborotni himoya qilish.
9. Dasturiy ta'minot narxi

Bugungi kunda buxgalteriya dasturlarini etkazib berishda etakchi kompaniya 1C firmasi hisoblanadi. Firma maxsuloti “1C:BUXGALTERIYA HISOBI” tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya siyosatining parametrlarini sozlash, dastlabki hujjatlarni yaratish, hisobotlarni tuzish, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi talablariga muvofiq kataloglarni sozlash imkonini beradi .

Sun'iy intellekt va dasturiy ta'minot turlari: Buxgalteriyaga aloqadorligi va misollar.

Sun'iy intellekt (AI) va buxgalteriya o'rtasidagi bog'liqlik so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi, chunki AI buxgalteriya sohasida avtomatlashtirish, tahlil va aniqlikni yangi darajaga olib chiqdi. Asosan hisoblash va qaror qabul qilish tizimlarida ishlatiladigan jarayonlarni avtomatlashtirishni o'z ichiga oladi. Bir necha xil sun'iy intellekt turlari mavjud bo'lib va ularning o'ziga xos vazifalari mavjud:

1. Mashinaviy o'qitish (Machine Learning).Ma'lumotlarni tahlil qilish va kelajakdagi moliyaviy oqimlarni prognozlash uchun ishlatiladi.

Ushbu AI asosan moliyaviy xisobotlarning xatoliklarini aniqlash va xarajatlarni bashorat qilish uchun foydalaniladi.

2. Raqamli yordamchilar va chatbotlar. Mijozlarga hisob-kitoblar yoki to'lovlar bo'yicha yordam beradi. Asosan Xizmat ko'rsatish uchun yaratilgan sun'iy intellekt.Bank to'lovlari bo'yicha chatbotlarni ham misol tarzida aytishimiz mumkin

Dasturiy ta'minot va buxgalteriya o'rtasidagi bog'liqlik bugungi raqamli iqtisodiyotda juda muhim ahamiyatga ega. Dasturiy ta'minot buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishda muhim vositadir.

1. Buxgalteriya avtomatlashtirish dasturlari. Hisob-kitoblarni, ma'lumotlarni kiritishni va hisobotlarni tayyorlashni avtomatlashtiradi.

2. Bulutli buxgalteriya dasturlari.Ma'lumotlarni saqlash, ulashish va real vaqt rejimida ularga kirishni ta'minlaydi.Qog'oz hujjatlarga ehtiyoj kamayadi, ma'lumotlarni izlash va boshqarish osonlashadi

3. Tahliliy va audit dasturlari. Moliyaviy jarayonlar tahlili va qonunchilikka muvofiqlikni tekshirishni osonlashtiradi.



1-jadval

Buxgalteriya hisobida “bulut” dan foydalanish

Afzalliklari	Kamchiliklari
xarajatlarni kamaytirishi	uchinchi shaxslarga ichki foydalanish ma'lumotlarini taqdim etish zarurati
masofaviy erkin foydalanish imkoniyati	ko'pgina elektron hisob-kitoblar foydalanuvchilarga birxil standart to'plam taklif qiladi
ishonchlilik (texnik nosozliklar xavfi minimallashtiriladi)	Kerakli vaqtda internetga ulanishning yo'qligi xavfi
har qanday vaqtda tizimda ishlash qobiliyati	kerakli darajadagi mutaxassislarning etishmasligi

XULOSA

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda buxgalteriya sohasini tubdan o'zgartirib, buxgalterlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Zamonaviy buxgalteriya jarayonlari tezkorlik, aniqlik va avtomatlashtirish bilan ajralib turib, hisob-kitoblarni samarali integratsiyalashga innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda. Shaxsiy kompyuterlar, maxsus buxgalteriya dasturlari va sun'iy intellekt (AI) yordamida qog'ozga asoslangan ish jarayonlari avtomatlashtirilgan tizimlar bilan almashtirildi. Bu nafaqat buxgalterlarning mehnat yukini kamaytirdi, balki ish natijalarining sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi.

Hozirgi kunda buxgalteriya faoliyatiga maxsus Internet-xizmatlar va sun'iy intellekt texnologiyalari tatbiq etilmoqda. Ushbu xizmatlar onlayn operatsiyalarni, bank xizmatlarini va axborot texnologiyalari portfellarini boshqarish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Bulutli texnologiyalar, ya'ni ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun Internetda joy ijarasi xizmati, buxgalteriya hisobini yanada soddalashtirish va samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, uzluksiz Internet aloqasi kabi kamchiliklar ham mavjud bo'lib, bu texnologiyalarni tatbiq etishda hal qilinishi zarur bo'lgan muhim masaladir.

Sun'iy intellektning foydali jihatlari buxgalteriya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt yordamida:

Moliyaviy xatoliklar avtomatik aniqlanadi va tuzatish tavsiya etiladi.

Hisob-kitoblar va ma'lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinadi, bu esa tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Firibgarlikni aniqlash tizimlari moliyaviy xavfsizlikni oshiradi.

Moliyaviy prognozlash orqali kelajakdagi xarajat va daromadlar bashorat qilinadi.

Bulutli texnologiyalarning afzalliklarini kengaytirish va uzluksiz Internet aloqasi muammosini hal qilish lozim. Sun'iy intellektidan nafaqat ma'lumot tahliliga, balki strategik rejalashtirish va xavflarni boshqarishga ham kengroq foydalanish kerak. Bundan tashqari, buxgalterlar uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilish va milliy qonunchilikka mos dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish zarur. Ma'lumotlar xavfsizligini oshirish uchun esa ilg'or kiberxavfsizlik protokollarini joriy etish talab etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati” - Teshaboyev Jamshidbek, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Buxgalteriya hisobi va bank ishi kafedrasasi asissenti
2. Шамина, Е. В. Перспективы внедрения автоматизированных технологий в бухгалтерский учет / Е. В. Шамина, А. А. Филимонов // Актуальные направления научных исследований XXI века: теория и практика. — 2018. — № 2 (38). — С. 129-132.
3. Kunduzova, K. I. (2020). Ways to attract investment and improve its accounting. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 216-221.
4. Qudbiyev, Nodir Tohirovich. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o‘tish dolzarbligi - Relevance of the transition to international financial accounting standards. *SJ international journal of theoretical and practical research*, 1(2), 56–64.
5. Shodiev, T., Turayev, B., & Shodiyev, K. (2021). ICT and Economic Growth Nexus: Case of Central Asian Countries. *Procedia of Social Sciences and Humanities*, 1, 155-167. <https://doi.org/10.21070/pssh.v1i.37>
6. Shodiev, K. (2021). The entrepreneurship development on the basis of government–private partnership and clustering in the touristic sphere. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 177-183.
7. Shodiyev, K. (2021). Optimization of production activity of the tourist enterprise. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 106-114.
8. Mardonov, B., & Zikirayev, S. (2024). BA’ZI GEOMETRIYA MASALALARINI YECHISH USULLARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(7), 183-186.
9. Axmadovich, M. B. (2020). Sfera sirtida joylashgan uchburchaklarni yechishning ba'zi usullari. *Science and Education*, 1(2), 23-27.
10. Usarov, S., Zikiryaev, S., Mardonov, B., & Namazov, G. (2024, May). Numerical analysis of the process of heat transfer in inhomogeneous media. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3147, No. 1). AIP Publishing.
11. Ахмадович М. Б. . (2024). Интерактивные Веб-Технологии Для Развития Логического Мышления Инженеров Будущего В Условиях Цифровой Трансформации Образования. *Miasto Przyszłości*, 52, 755–761. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4713>
12. Mardonov Baxodir Axmadovich. (2024). KELAJAKDAGI MUHANDISLARNI RAQAMLI TA’LIM ASOSIDA O‘QITISH, SAMARALI VEB-KONTENT YARATISH METODOLOGIYASI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVATSIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(9), 42–45. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/11916>